

INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI VA TARKIBIY QISMLARI


Xamidova Zulfiya Ahmadjonovna

3-B. Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Davlat hokimiyatining ta'sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan biridir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma'lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta'kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me'yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o'z ichiga oladi.

Investitsiya muhiti yoki iqlimi juda keng ma'noli bo'lib, iqtisodiyot holatini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini, tadbirkorlik faoliyati qay darajada rivojlanganligi, ularning samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun chiqarilgan qonun va qarorlarni, madaniyatini, ma'naviyatini investorlar o'z mablag'larini yo'naltirish uchun e'tiborga oladigan hamda ulardan xulosa chiqaradigan boshqa omillarni o'z ichiga oladi.

Investitsiya muhitiga ta'sir qiluvchi omillar to'g'risida ham turli xil iqtisodiy qarashlar bor. Masalan, V.V.Tsaryevning fikricha, investitsiya muhiti - ikki asosiy komponent: alohida korxona, mintaqa, mamlakat (investitsiya salohiyati) va investor faoliyati sharoitlarini (investitsiya xatarini) o'z ichiga oladi. (1-rasm)



1-rasm. Investitsiya muhitining tarkibiy qismlari


N.V.Igoshinning fikricha, Investitsiya muhitini aniqlashda uch yondashuvdan foydalaniladi: tor yondashuv, omilli yoki keng yondashuv va xatarli yondashuv¹.

Yana bir investitsion muhit holatini aniqlaydigan omil bo'lib investitsion tushkunlik hisoblanadi. Bundan tashqari jamg'arma taqchilligi foiz stavkalarining yuqoriligi bilan ham bog'liqdir. Bu esa kichik va o'rta tadbirkorlikni bank kreditlaridan foydalanishlarini qiyinlashtiradi. Inflyatsiya sababli, beriladigan kreditlarning katta qismi qisqa muddatli bo'lib, bu ulardan ishlab chiqarishda foydalanishni cheklab qo'yadi.

Korxonalar bir-birlariga bo'lgan qarzlarini to'lay olmaslik holatining kuchayishi ham investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qimmatbaho qog'ozlar bozori ham investitsion muhitga ta'sir etadigan faktlar bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy siyosatni olib borish davlat boshqarish organlarini investitsion jarayonlarni tartibga solish, iqtisodiyotda davlat aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etish va chet el investitsiyalarini jalb qilish investitsion muhitga katta ta'sir ko'rsatadi². (2-rasm).



2-rasm. Investitsion muhitga ta'sir etuvchi salbiy va ijobiy omillar

¹ V.V.Sarev. Otsenka ekonomicheskoy effektivnosti investitsii. Moskva, «Piter», 2004, 131-bet.

² A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov. Moliyaviy va boshqaruv taxlili. Toshkent. "Sharq". 2005, 344, 345-bet

Yana bir muhim omil mamlakatdagi hukumat rahbarlari, mehnat jamoalari, muxolif partiya vakillari va xalqning xorijiy investorlarga nisbatan bo'lgan **do'stona munosabatlaridir**. Undan tashqari oddiy xalqning xorijliklarga, ularning mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan munosabati ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil ham investorlarning mamlakatdagi faoliyatlariga katta ta'sir o'tkazadi.

Hukumatning siyosati yana bir muhim omil hisoblanib, investorlarning faoliyatiga turli xil ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda uch jihatga alohida e'tibor berilishi zarur:

Xorijiy investorlarning loyihalarda qatnashish darajasi. Xorijiy investorlarni o'z biznesining qanday qismiga egalik qilishlari qiziqtiradi. Bu esa loyiha turiga bog'liq.

Xorijliklarning mehnati. Xorijiy investorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul deb fikralashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi.

Valyuta muomalasini tartibga solish. Xorijiy investorlarni mamlakatga mablag' olib kirish, uni sarflash imkoniyatlaridan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga ayirboshlash, chetga olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Mamlakat olib borayotgan makroiqtisodiy siyosat ham muhim omillar qatoriga kiradi. O'zbekiston Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam amaliy aloqalar o'rnatdi. Bu munosabatlar o'zaro hurmat hamda umumiy vazifalarni amaliy hal qilishga intilish asosiga qurilgan.

O'zbekistonning bu tashkilotlar bilan samarali va foydali munosabatlar chet ellik investorlar respublikada o'tkazilayotgan iqtisodiy islohatlarning orqaga qaytmasligiga bosh kafolat bo'ladi.

Keyingi omil **infrastruktura** holati bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan keyingi muhim omillardandir.

Ishchi kuchi. Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi.

Banklar va moliya. Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi.

Hukumat strukturalaridagi rasmiyatchilik. Hukumat o'z investitsiya siyosatini qanday baholashi muhim emas. Bunda katta tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bergan baho muhimdir.

Mahalliy ishbilarmonlik muhiti. Bu tushuncha juda keng bo'lib, unga: advokat, maslahatchilarning ko'pligi, malakali ish yurituvchilar, buxgalterlar, arxitektorlar va konstruktorlarning mavjudligi kiradi.

Yashash sifati. Ushbu omil xorijiy investorga taklif qilinayotgan barcha narsalarda o'z aksini topadi. Aholi turmush tarzi va daromadlarining darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xilma-xilligi va mehnat uchun qilinadigan xarajatlar hajmida o'z aksini topadi.